

“TASDIQLAYMAN”
“Olmaliq KMK” AJ
boshqaruv raisi
A. Xursanov
06.05.2024y.

Barqaror rivojlanish sohasida “Olmaliq KMK” AJ SIYOSATI

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda “Kombinat” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasida mis, rux va qimmatbaho metallarning yirik ishlab chiqaruvchisi va yetkazib beruvchisi bo‘lgan zamonaviy korxonaga hisoblanadi.

Kombinat nafaqat o‘z faoliyatining, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim ishtirokchi sifatidagi o‘z rolini e‘tirof etadi. Kombinat iqtisodiy o‘rish, ijtimoiy mas‘uliyat va atrof-muhitni muhofaza qilishga intiladi. Innovatsiyalar, resurslardan samarali foydalanish va jamiyat rivojlanishiga amaliy yordam ko‘rsatish -faoliyatni amalga oshirishning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Atama va tushunchalar

Barqaror rivojlanish (korxonalarda) — bu maqsadlarga yerishish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida iqtisodiy, ijtimoiy va yekologik sohalarni optimallashtirish va saqlashga qaratilgan faoliyat. (2015 yildagi BMT sammitining "Barqaror rivojlanish" dasturiy hujjati).

ESG (environmental, social, governance) — bu biznesni barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadigan qoidalar va yondashuvlar to‘plami.

Environment — atrof-muhitga yehtiyotkorlik bilan munosabat;

Social — ijtimoiy javobgarlik;

Governance — mas‘uliyatli korporativ boshqaruvdir.

KOMBINAT MISSIYASI VA QADRIYATLARI

Kombinat missiyasi - Hozirgi va kelajak avlodlar uchun iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy tenglik va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, boshqa kompaniyalarni yanada barqaror kelajak sari o‘zgarishga ilhomlantirgan holda, innovatsion yondashuv va strategiyalarni tatbiq etish orqali barqaror rivojlanishda yetakchiga aylanishdan iborat.

BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI SIYOSATNING ASOSIY TAMOYILLARI

Kombinat asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Kombinat ishchi xodimlarining Xalqaro huquqning umume‘tirof yetilgan tamoyillari va me‘yorlariga muvofiq inson huquqlarini himoya qilinishini ta‘minlash;
- Tashkiliy tuzilmaning barcha darajalarida ESG masalalarini boshqarish;
- Kombinatning iqlim xatarlarini baholash;

- Mehnat erkinligi, majburiy va bolalar mehnatni taqiqlash prinsipini qoʻllab-quvvatlash;
 - mehnatini istisno qilish, mehnat va bandlik sohada kamsitishlarga barham berish;
- Korrupsiya va boshqa noqonuniy xatti-harakatlarga, jumladan, tovlamachilik va poraxoʻrlikning barcha shakllariga toqat qilmaslik;
- Jamiyatning barcha aʼzolari uchun xavfsiz, sogʻlom turmush sharoitlari va ishlash sharoitlarini yaratish, shu bilan birga odamlarning sogʻligʻi va farovonligi uchun xatarlarni minimallashtirish;
 - Cheklangan resurslardan optimal foydalanish;
 - Barqaror yechimlarni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan xabardorlikni oshirish va malakalarni rivojlantirish vositasi sifatida bilim va tajriba almashish;
 - Turli hamjamiatlarning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini hurmat qilish.
 - Umumeʼtirof yetilgan tamoyillarga muvofiq, turli jamiyatlarning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini (diniy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, estetik) hurmat qilish.
 - BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarini dasturulamal deb belgilash va ularga erishishga koʻmaklashish;
 - Muloqot, hamkorlik va konsensus asosida barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun manfaatdor tomonlar, jumladan, mahalliy hamjamiyatlar, davlat va nodavlat idoralari, shuningdek boshqa kompaniyalar bilan oʻzaro hamkorlik qilish;
 - Barqaror rivojlanish sohasidagi oʻz faoliyati, shuningdek, ushbu sohada uning taʼsiri va yutuqlari toʻgʻrisida shaffof maʼlumot berish.

KOMBINAT MAQSADLARI

Kombinat maqsadi - ESG tamoyillarini integratsiyalash, aynan atrof-muhitga masʼuliyatli munosabat, yuqori ijtimoiy masʼuliyat, korporativ boshqaruvning yuqori sifati va faoliyatining barcha jabhalarida iqtisodiy samaradorliklarga erishishdan iboratdir.

VAZIFALARI VA MAJBURIYATLARI

“Olmaliq KMK” AJ ish faoliyatida barqaror rivojlanishni taʼminlash boʻyicha quyidagi vazifa va majburiyatlarni oʻz oldiga qoʻyadi:

- ESG tamoyillarini kombinatning barcha tarkibiy boʻlinmalarda va boshqaruvning barcha darajalarida joriy etish;
 - Barqaror rivojlanish sohasidagi boshqaruv masalalari va oʻzaro hamkorlikni Kombinatning tashkiliy tuzilmasiga integratsiyalash;
 - Iqlim xatarlari reestrini tuzish va unga ochiq kirish tartibida chop etish;
 - Iqlim sharoitlari va iqlim bilan bogʻliq oʻzgarishlarni, shuningdek ularning kompaniya biznesiga taʼsirini monitoring qilish;
 - iqlim xatarlarini moliyaviy baholash – salmoqli moliyaviy yoʻqotishlarni baholash, iqlimga oid hodisalar yoki iqlim sharoitidagi oʻzgarishlar natijasida Kombinatga yetkazilishi mumkin boʻlgan moliyaviy yoʻqotishlarni baholash;
 - ijtimoiy, ekologik va boshqaruv sohalarida ESG xatarlarini aniqlash;
 - manfaatdor tomonlar xaritasini shakllantirish va manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro hamkorlik qilish;

- barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar va asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarni (KPI) aniqlash;
- barqaror rivojlanish sohasidagi tashabbus va chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- qarorlar qabul qilish jarayonida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini hisobga olish uchun qisqa muddatli va uzoq muddatli manfaatlarni integratsiyalash, barqaror rivojlanishni biznes jarayonlariga integratsiyalash;
- barqaror rivojlanish bo'yicha sa'y-harakatlar natijalarini muntazam baholash va monitoringini yuritish;
- Kombinat xodimlarining barqaror rivojlanish sohasida malakasini oshirish;
- barqaror rivojlanish sohasida har yillik hisobot jarayonini tashkil etish;
- GRI, SASB, ESRS, ISSB IFRS S1/2 xalqaro standartlariga muvofiq ko'rsatkichlarni oshkor qilish;
- barqaror rivojlanish sohasidagi natijadorlikni o'lchash va ESG reytingini olish;
- barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatni doimiy ravishda takomillashtirish.